

ABULG‘OZIY BAHODIRXONNING “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLAR

Abdimo‘minova Dildora Oybekovna

TerDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada etnonimlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilib, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar ro‘yxati tuzildi. Ularning qo‘llanilish tarixi tahlil qilindi. Tahlil davomida ko‘plab qabila nomlari shaxs nomidan o‘zlashganligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, toponim, zoonym, fitonim, etnonim, etnik, qabila, xalq, etimologiya, turkiyshunos.

Yer yuzida mavjud bo‘lgan barcha joylar, jismlar, hayvonlar, o‘simliklar ayrim xususiyatlariga tayangan holda nomlanish tarixiga egadir \\. Tilshunoslikda onomastika degan tushuncha bo‘lib, u yunoncha “onomastikos” – ismga bog‘liq so‘zidan olinib, otlar, ularning tarixi, tilda qo‘llanilishini o‘rganadi. U antroponim, toponim, zoonym, fitonim, etnonim kabi xos nomlarga bo‘linadi. Jumladan, jonivorlarga berilgan nomlar zoonym, o‘simlik nomlari fitonim (lotincha “fitos” – o‘simlik, “omuna” – nom), odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo‘llanishi rivojlanishini esa antroponimika o‘rganadi. Masalan, Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir Ko‘ragoniy. Bunda faqat Temur shaxsning xos ismi, Amir - hukmdorlik darajasini anglatadi, Sohibqiron - Temurga zamondoshlari tomonidan berilgan sifat, Tarag‘ay - otasining ismi, Bahodir - otasining laqabi, Ko‘ragon - xonga kuyovlik nisbasi. Etnik uyushmalar(xalq, millat, qabila, urug‘) ning o‘ziga xos nomlanishi lingvistikada etnonimlar deb ataladi. Bu termin grekcha “etno” va “oputa” so‘zlari yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, “qabila va nom” ma’nosini ifodalab keladi.

XVI asrda yashab ijod qilgan taxt sohibi va adabiyotchi Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”(“Turkiy va mo‘g‘ullar shajarasi”) asari tarixiy asar sanalib, muallif tomonidan eski o‘zbek tilida yozilgan. Asarni yozilishi borasida shunday bayonotlar mavjud, Bahodirxon 39 yoshga yetkanda unga aholidan, ulug‘ boshliqlardan yozuvchilar tomonidan yozilgan bir qancha O‘uznomalar mavjud biroq ular bir-biriga to‘g‘ri kelmaganligi uchun arz keladi. Abulg‘oziy Bahodirxon esa asarni turklar tushunsin, o‘z tarixiga nazar tashlar ekan tilini unutmasin deya faqatgina turkiy so‘zlardan foydalanib asarni yaratdi. “Shajarayi turk” asari “Shajarayi tarokima” dan hajman kattaroq va voqealari kengroq bo‘lib, mantiqan uning davomi hisoblanadi. Ushbu asarda Odam alayhissalomning yaratilishidan Bahodirxonning mamlakatni boshqarishi, hayotida bo‘lgan voqealar, el va elatlarning kelib chiqishi, shohlarning

zikri, sifatlari va ularning ahli ayollari, farzandlari haqida bir jumla bo‘lsa-da ma’lumot berilgan. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi mavjud. Ular har bir millat milliy tilining xususiyatlarini ochib beruvchi muhim manbadir. Etnonimlar orqali xalqlarning etnogenezi, turmush tarzi, tili va diniga oid ko‘pgina ma’lumotlarni olish mumkin. Quyidagi jadval asosida asarda keltirilgan etnonimlar bilan tanishib o‘tamiz.

1	Alqanut	20	Qoranut
2	Arlat	21	Qorluq
3	Baday	22	Qurlas
4	Barin	23	Qo‘niqqimar
5	Bayovut	24	Qo‘nqirat
6	Do‘rman	25	Suldus
7	Elchikin	26	Suqut
8	Ildurkin	27	Tatar
9	Inkiras	28	Tirkin
10	Jalayir	29	Tumat
11	Kamkamchut	30	Turqaq
12	Kankit	31	Ungut
13	Kilgit	32	Uyg‘ur
14	Kirayt	33	Uyshun
15	Markit	34	Xitoy
16	Mo‘g‘ul	35	O‘klan
17	Nayman	36	O‘rmanqit
18	Qirg‘iz	37	O‘rmavut
19	Qishliq	38	O‘yrat

Yuqorida keltirilgan etnonimlarni nomlanish tarixiga ko‘ra ikki guruhga ajratib olishimiz mumkin:

Shaxs nomidan o‘zlashgan el nomlari: qirg‘iz, inkiras, alqanut, qoranut, qurlas, elchikin, o‘rmavut, arlat, kilgit, baday, qishliq, barin, suqut, qo‘niqqamar.

Ma’lum bir ma’no ifodalovchi nomlar: uyg‘ur, do‘rman, qiyot, qorluq, o‘rmanqit. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib, ularni tahlil qilamiz.

Arlat eli (hozirda Olot) – “otaning sevar o‘g‘li” ma’nosida kelgan. “Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Barcha Arlat eli aning nasli tururlar”.

Barin eli – “Do‘rmanning uch o‘g‘li bor erdi. Ulug‘ining oti Barin. Barcha Barin eli uning nasli tururlar”.

Bayot eli – “davlatli” degan ma’noni beradi.

Do‘rman eli – mo‘g‘ulchada “to‘rt” degan ma’noni anglatadi. “Mo‘gulning Bichinkayon oti podshohining besh o‘g‘li bor erdi. Kichigi barchasindin yaxshiroq erdi. Otasi o‘lar bo‘lg‘aninda: “Kichik o‘g‘limni to‘ra qiling!”— deb vasiyat qildi. Xalq ham kichik o‘g‘lini to‘ralikka loyiq bilib xon ko‘tardilar. Aning oti Timach Mergan erdi. To‘rt ulug‘i xalqqa ko‘p aytdilar: «Biz to‘rtimizning har qaysimizni to‘ra

qilsangiz rozimiz, ammo kichikka rozi ermasmiz»,— deb. Xalq ul to‘rtining so‘zlarin qabul qilmadilar. Aning uchun elga o‘pkalab, yurtidan ketib, yot elning ichina borib o‘lturdilar. Mo‘g‘ul to‘rtini do‘rman der. Yot el bu yigitlarga do‘rmanlar teb ot qo‘ydilar. Ul to‘rtisi o‘ldi. O‘g‘lonlari qaytib qarindoshlari ichiga keldilar”

Inkiras va Alqanut eli - bu ikki el Qubayshiraning ikki o‘g‘lidan tarqalgan el hisoblanadi. Chingizxonning onasi O‘lun kuchin ham Alqanut urug‘idan edi.

Kilgit eli – “tilida, nutqida kamchiligi bor kishi” ma’nosini berib, asarda “Kishining tilida kamligi bo‘lsa, turk xalqi bo‘ltak der. Mo‘g‘ul kilgi der. Bu kishining tilining kamligi bor erdi. Aning uchun Kilgit tedilar. Barcha kilgit eli u kishining nasli turur”.

Nayman eli - o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, no‘g‘oy va oltoy xalqlari tarkibiga kirgan turk urug‘laridan biri, olimlar naim so‘zi mog‘ulchada “sakkiz” ma’nosini anglatadi deb aytadilar. “Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi. Burunqilarin bilmaymiz. Ancha bizning eshitganimiz bir podshohlari bor erdi, Qarkish otli. Ul o‘lgandin so‘ng, inisi bor erdi. Aynat otli. Ani podshoh qildilar. Chingizxon zamoninda podshohlarining oti Tayanxon derlar erdi. O‘g‘li bor erdi Kuchluk otli. Yurtlari mo‘g‘ul yurtinda bo‘lur. Qoraqurim tegan yerda va ekinlari bo‘lmas”.

Qirg‘iz eli - O‘g‘uzxonning Qirg‘iz ismli nabirasining naslidir.

Qiyot eli – “Shajarayi turk” asarida yozilishicha, bu so‘z mo‘g‘ulcha “tog‘dan oqqan sel” ma’nosida bo‘lib, qiyon so‘zining ko‘pligidir. Shuni aytib o‘tish joizki, qadimgi turkiy qilda -t morfemasi ko‘plik ma’nosini bergan. Bu fikr V.V.Radlov asarlarida ham uchraydi.

Qorluq eli – turkiyda “qorlik, qorliq joy” degan ma’noni anglatadi. “Qorluq eli Mo‘g‘uliston tog‘larining ichinda yurt qilib o‘lturdilar”.

Qoranut eli – “Tusbudayning ikki o‘g‘li bor erdi. Avvalg‘ining oti Qoranut. Barcha Qoranut eli aning nasli tururlar”.

Qo‘niqqimar eli O‘rmavit urug‘iga mansub bir kishining katta o‘g‘lining naslidir. Uning ismi ma’lum bo‘lmaydi, xalq unga Qo‘niqqimar deb nom qo‘yishadi. Qo‘niqning ma’nosi ulug‘ bo‘lsa, qimarning ma’nosi burundir. Uning burni katta bo‘lganligi sababli ham shu laqabni oladi.

Qo‘nqirat eli – (hozirda Qo‘ng‘irot) “Shajarayi turk” asarida yozilishicha, qayon naslidan bo‘lgan Cho‘rliq mergan degan kishining Qo‘nqirat degan o‘g‘li bo‘lgan va barcha Qo‘nqirat eli uning naslidan tarqalgan.

Suldus eli mo‘g‘ulning so‘nggi elidir. Undan ajralib chiqqan el esa **Ildurkin** deb nom olgan.

Uyg‘ur eli – uyg‘ur so‘zining ma’nosi “yopishgur” bo‘lib, O‘g‘uzxon bir elni birlashtiradi vas hu nomni qo‘llaydi.

O‘rmanqit eli - “Bu elning yurtlari qalin yog‘ochning ichinda turur. Aning uchun

O‘rmanqit ot qo‘ydilar”.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan etnonimlardan shunday xulosa qilish mumkinki, asarda keltirilgan ellarning katta qismi shaxs nomidan o‘zlashgan. Turkiy etnonimlarni, jumladan, o‘zbek etnonimlarini o‘rganish ishiga taniqli turkiyshunoslar N.Aristov, V.V.Radlov, V.V.Bartold, S.P.Tolstov, S.M.Abramzon, L.V.Gumilyov, D.Ye.Yeremeyev, N.A.Baskakov, L.V.Zuyev, A.N.Xanikov, B.A.Jdanko, B.X.Karmisheva, A.A.Valitova, S.Ataniyozov, D.Aytmurodov, R.G.Kuzeyev; o‘zbek olimlaridan Y.G‘ulomov, B.Ahmedov, K.Shoniyozov, A.Muhammadjonov, X.Doniyorov, S.Gubayeva, T.Nafasov, A.Otajonova va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar. Turkiy xalq uzoq shakllanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bu taraqqiyot davomida turk ulusi turli xalqlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatib, nafaqat o‘zining, balki o‘sha xalqlarning[7:282] ham rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Etnonimlarning etimologiyasi masalasi tilshunos, tarixchi hamda etnograflarning hamkorlikdagi tadqiq obyekti bo‘lgandagina bu borada siljishga erishish mumkin. Bugungi kunda tilshunoslikda qilinayotgan barcha izlanishlar kelajakda ilmiy ishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quranboyeva. S. M. Abulg‘ozi Bahodirxon ilmiy faoliyatining o‘rganilishi.
2. Abulg‘oziy Bahodirxon. “Shajarayi turk”, T: “Cho‘lpon”-1992
3. Abulg‘oziy Bahodirxon. “Shajarayi tarokima”, T: “Cho‘lpon”-1995
4. Xudoynazarov. H. Abulg‘oziy Bahodirxon tarixchi va adib. T: “O‘zbekiston”-1994
5. Abdimo‘minova D. "Ajdodlarni jamlagan asarlar"(A.Bahodirxonning Shajarayi turk va Shajarayi tarokima asarlari asosida) Активный исследователь. Организовано в масштабах Содружества Независимых Государств международный научно-практический конкурс
6. Begmatov E. Mustaqillik va toponimiya/ O‘zbek tili va adabiyoti-2009,5-son, 9-12-b.
7. Sultonqulova F. ON THE EXPRESSION OF FOLK SONGS IN THE CREATION OF USMAN AZIM //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 282-285.
8. Moxinur N., Feruza S. XX ASR O‘ZBEK TANQIDCHILIGI TARAQQIYOTIDA OZOD SHARAFIDDINOVNING O‘RNI //Ta‘lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 11. – №. 7. – С. 107-110.
9. Султонкуловой, Феруза Бобоназаровна. "УСМОН АЗИМ ШЕЪРИЯТИДА КУЗ МЕТАФОРАСИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 4.3 (2021).